



M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **M**AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*

## TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudojberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов .....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanshida	
qо'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati.....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarlari tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruв kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....	52
Sotiboliyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth .....	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv .....	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi .....	70
Abdullahayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
O специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....	80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....	84
Jorayeva Sohibiamol Norgobiylona	

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный" .....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi .....	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari .....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....	113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна	
Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish .....	117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение" .....	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development .....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish .....	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrleshga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish .....	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilingual rivojlanish .....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо.....	157
Эргашева Камола Алишеровна	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....	161
Gaukhara Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	



# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PAPE-MASHE (G'IJIMLANGAN QOG'OZ) USULIDA O'YINCHOQLAR VA BUYUMLAR YASASH

Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lif kafedrasini  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lif tashkilotlarda tasviriy faoliyatning Pape-mash'e (g'ijsimlangan qog'oz) usulida faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish va ularni amalyotda qo'llash hamda o'tkazish metodikasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** pape mashe, tasviriy faoliyat, qo'g'oz, pva kley, mayda motorika, yirik motorika.

**Abstract:** This article is intended for educators of preschool educational organizations and covers the methodology for the correct organization and application of visual activities in preschool educational organizations in the Pape-mash'e (crumpled paper) method.

**Key words:** pape-mashe (crumpled paper), visual activity, paper, PVA glue, fine motor skills, coarse motor skills.

**Аннотация:** Данная статья предназначена для воспитателей дошкольных образовательных организаций и освещает правильную организацию и практическое применение и методику проведения изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях методом папе-маше (смятая бумага).

**Ключевые слова:** папе-маше (смятая бумага), изобразительная деятельность, бумага, ПВА Клей, мелкая моторика, крупная моторика.

## KIRISH

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlar kelajakda mam-lakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta'lif tizimiga ham bog'liq ekanligi barchamizga ma'lum. Shu bilan birga intellektual ijodiy salohiyatning o'sishi, uni sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta'lif samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o'sishiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limga strategik yo'nalishlardan biri ta'lif tashkilotlarning innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilyapti. Ta'lif tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amalyotda ta'lif faoliyatlarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkon mavjud bo'lgan innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimani aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat. Bu holat bugungi kunda dolzarbli bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta'lif tashkilotlarini yashash sharti (bevosita va ko'chma ma'noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi. Bugungi davr ta'lif tashkilotlari oldiga yangi talablarni, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilamoqda. Ushbu jarayonda, avvalo, maktabgacha ta'lif muktab va oliv ta'lif tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lif-tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lif tashkilotlari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib, innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion hamda ijodiy g'oyalar ilg'or bo'lgan rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz".

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarning natijalariga, shuningdek, bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlariga ko'ra, yuqorida ta'kidlaganimizdek, dunyoqarashning asosiy qismini shakllanishi ularning maktabgacha yoshiga to'g'ri kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bolalarning shakllanish va rivojlanish jarayonining mazkur bosqichiga alohida e'tibor bilan qarash kerak bo'ladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning tasviriy faoli-

yati eng ommaviy tur hisoblanib, deyarli barcha bolalar ham narsalar yashashni yaxshi ko'rishadi. Lekin ular talab darajasida yaxshi yasay olmasliklari mumkin. Maktabgacha ta'lif tashkilotida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglar, bolalarning ota-onalari ularni faqat maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida va metodik qo'llanmalar orqali maqsadga yo'naltirishlari lozim. Bunda bolalarni atrof-muhitdagi narsa va hodisalarini anglash, ularga elementar tarzda estetik munosabat bildirish, ulardan olingen tasavvurlarni o'z faoliyatlariga tatbiq etishga bosqichma-bosqich o'rgatib borish, ularni maktab ta'lifiga tayyorlab borishning samarali vositalaridan biri ekanligi ham ijtimoiy-pedagogik mohiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat orqali bolalarda aqliy rivojlanish, badiiy did va ijodkorlikni tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi go'zalliklardan zavqlana bilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Aynan shu omillar maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan har qanday ta'limiy va tarbiyaviy ishlar, jumladan "Tasviriy faoliyat"ning Pape-mashe turi muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Zero, tasviriy faoliyatning "Pape-mashe" turi bo'yicha olib borilgan maqsadli tadqiqotlarning natijalari maktabgacha ta'lif tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ta'lif va tarbiya ishlari jarayonida aniqlangan ijtimoiy zarurat, mavjud ehtiyojdan kelib chiqqan ishlanmalar sifatida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Faoliatlarning asosiy vazifasi sifatida tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni kuzatilgan voqe va hodisalarini, obyektlarni tasvirlashga o'rgatish orqali, ularda atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlanish, olamni bilish va undagi voqeliklarni anglashga o'rgatishdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Uzoq yillardan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlar yig'indisidan iborat. I.V. Lvov ijodkorlik bu-bilim va ko'nikmalarni ajralmas qismi bunda bola iqtidori muhim omil ekanligini takidlaydi. V.A. Suxomlinskiy aytganidek, "Bolalarning qobiliyatları va iste'dodlarining kelib chiqishi erta bolalik davridan boshlanadi. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini ochib berishda ularning barmoq motorikalari o'rni beqiyos hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, bolaning qo'lida qanchalik mahorat bo'lsa, bola shunchalik aqlli bo'ladi". Olimlarning fikriga ko'ra, barcha bola qobiliyatli. Shu sababli, vaqt o'tishi bilan bu qobiliyatlarni sezish, his qilish va bolaga ularni amalda, haqiqiy hayotda namoyon etish imkoniyatini berish uchun imkon qadar tezroq harakat qilish kerak. Bolalar ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning pape mashe usulini o'rni beqiyos sanaladi. Tarbiyachi mohirona usullarni qo'llagan holda bolalarni buyumlar yasashga o'rgata olishi bolani ijod olamiga kirib kelishiga turki bo'ladi.

B.N. Nikitin, O.M. Dyachenko, N.E. Veraksa tomonidan ishlab chiqilgan qiziqarli motorikani rivojlantiruvchi ijodiy o'ynilar ham bola qiziqish va sensomotorikalarini rivojlantirishi isbotlandi.

Tarbiyachi yordamida badiiy va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirgan holda, bola yangi asarlar yaratadi (meva sabzavotlar, choynak, piyola, likopcha non).

Bolalar ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish uchun asos – birinchi navbatda erkinlikdir. Tarbiyachilar bolalarni majburlashi kerak emas. Takomillashtirilgan ilk qadam o'quv dasturiga binoan bolani qobiliyatiga qarab faoliyatlarga jalb qilish bayon etilgan. Tasviriy faoliyat turi bo'lgan "pape mashe" usuli orqali bolani iqtidorini shakllantirish jarayonida yasagan o'ynchoqlari uchun rag'batlantirib borish, bolani qo'llab-quvvatlash uning fikrlarini tinglash kerak.

Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalananib, bola ijodiy qibiliyatlarini rivojlantiruvchi "pape mashe" usuli maktabgacha ta'lif yoshdagi bolalarning hayotida muhim ro'l o'ynashi isbotlangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijodkorlik – faoliyatlarining turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqa ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib to namoyon bo'lishigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bolalardagi ijodiy faoliyat kurtaklari ta'lif-tarbiya jarayonlarida kamol topa boshlaydi. Bolalarni ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish jarayonida kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehnli, kashfiyotchilik qibiliyati namoyon etadigan raqobatdosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida bolalar yoshiga xos o'ynichoq va buyumlarni yashash, bolalarni mayda qo'l motorikalarini rivojlantirish, ularda badiiy-estetik didni tarkib toptirish hamda aqliy intelektual salohiyatni rivojlantirishga, nutqini o'stirishga, tafakkurini shakllantirishga asos bo'ladi. Shu bilan birga "Pape-mash'e" usulida turli narsalar yashash bolalarning hayot xavfsizligini ta'minlaydi. Gigiyenik talablarga mos ravishda tashkil etiladi. Ishlatiladigan mahsulotlar bolalarning salomatligiga salbiy ta'sir qilmaydi, balki ularga zavq bag'ishlaydi. Bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasi ortib boradi. O'zi yasagan o'ynchoqlardan quvonish va yasagan narsasidan zavqlanish tuyg'ulari uyg'onadi hamda o'z "Men"i shakllanadi. Natijada bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasi ortib boradi. Bolalarni o'z "Men"i shakllanadi. Milliy qadriyatlar va an'analar asosidagi o'yn va o'ynchoqlar bolalarda o'z tug'ilib o'sgan yurtiga faxr, iftixon tuyg'usini uyg'otish bilan birga, ochiq ranglar jilosi ular ruhiyatiga ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. Milliy hunarmandchilik asosidagi idishlarni yasash, uy-ro'zg'or buyumla-



rina yasash esa bolalarda hunarmandchlikka bo'lgan qiziqishini ham orttirib boradi. Ushbu usul orqali tarbiyachi bolalarda atroficha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishga erishadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiyachi mashg'ulotni bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga oлган holda ularga munosib tarzda yetkazadi. Maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga oлган holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiyi qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlanish maqsadida pape mashe usulidan samarali foydalanib kelinmoqda. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda, avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagagi turli bolalarning qobiliyatları va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarni tajribada sinab ko'rish xoxish-istikclariga qaratilgandir. San'at markazidagi ta'lif jarayonida bolalarning o'zlarini tegishli faoliyat turini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi pape mashe usulidan turli buyumlar yasash orqali barchaga birdek ko'rsatma bersa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Bu usul yordamida bolajonlarda ziyraklik va ijodkorlik kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Tarbiyachilar pape mashe usulini faoliyatlar kesimida qo'llashi jarayonida bolalarda quydagi natijalarni hosil qilinadi:

- Tasviriy faoliyatning pape-mash'e turi ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega, olib borilgan maqsadli tadqiqotlar natijalari, maktabgacha ta'lif tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ta'lif va tarbiya ishlari jarayonida mavjud ehtiyojlardan kelib chiqqan ishlanmalar sifatida muhim pedadogik ahamiyat kasb etadi.
- Tasviriy faoliyat bo'yicha zamonaviy mazmun va mohiyat kasb etuvchi metodik ishlanmalar va qo'llanmalar yaratiladi.
- Bolalarda aqliy rivojlanish badiiy did va ijodkorlikni tarkib toptirish, tevarak atrofdagi go'zalliklardan zavqlana bilish ko'nikmalarini shakllanadi.
- Pape-mash'e bilan ishlash jarayoni. Bolalarda mehnat malakalarini shakllanishiga, turli asbob va materiallar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi.







## XULOSA

Aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida pape mashe usuli o'zining bolalar mayda motorikalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etilishi bilan ajralib turadi.

Demak, bolalarni "buyuk san'at" bilan imkon qadar erta tanishtirish kerak. Bolaning go'zallik olamiga mustaqil kirib borishi uchun tasviriy san'at turi "pape mashe" usulini bosqichma-bosqich tushunish uchun ushbu yo'lning bosqichlarini: oddiydan murakkabga, xususiydan umumiygacha bo'lgan bosqichlarni belgilash orqali zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak.

Bolaga faoliyatidagi asosiy maqsadini qanday qilib tasvirlashni o'rnatish va oxirida nimani kashf etganini tushunish muhim. Ba'zida, biz bilmagan holda, o'yin va muloqot orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanramiz. Ammo, barkamol rivojlanish uchun mustahkamlik va uslubiyat zarur. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng yaxshi usuli – tasviriy faoliyat haqidagi ko'nikmalarini boyitish hisoblaniladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Молотоборова О.С. Кружок изготовления игрушек сувениров. – М.: Просвещение, 1993.
2. "Tasviriy faoliyat" bolalar bog'chalari ucun dastur. – Toshkent, 1995.
3. Xasanov R. Tasviriy san'at va badiiy mehnat.
4. "Davlat talablari" 2022-yil.
5. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2022-yil.
6. "Ilm yo'li" variativ o'quv dasturi 2020-yil.
7. <https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



**Muharrir:** Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**